KUCH ADOLATDADIR Amir TEMUR

ADOLAT MEZONI

GAZETA 2010-YIL 3-MAYDAN CHIQA BOSHLAGAN // HUQUQIY-IJTIMOIY VA MA'NAVIY-MA'RIFIY GAZETA // ISSN 2181 - 483X WWW.ANDIJONSADOSI.UZ // № 39 (569) 2025-YIL, 13-SENTABR

Nuqtayi nazar

OLDIMIZDA DOLZARB VAZIFALAR BOR



"KORRUPSIYASIZ JAMIYAT - TARAQQIYOT KAFOLATI"

O'zbekiston Oliy Majlisi huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan "Adolat mezoni" gazetasining "Korrupsiyasiz jamiyat - taraqqiyot kafolati" loyihasi doirasidagi sahifa

Ma'lumki, jamiyatni turli illatlardan tozalash o'sha jamiyat vakillarining vijdoniy vazifasidir. Korrupsiya bugun ana shunday illatlardan bo'lib turibdi. Bu, hech kimga sir emas. Joriy yilning 4-5-sentyabr kunlari Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining o'ninchi yalpi majlisi bo'lib o'tdi. Unda ham qator masalalar ko'rib chiqildi, xususan, yuqorida biz tilga olgan illatga murosasiz kurash olib borish yo'nalishidagi masalalar ham.

Video-konferens-aloqa tarzida o'tkazilgan yalpi majlisda hukumat a'zolari, vazirlik va idoralarning vakillari, mahalliy Kengashlar deputatlari, Senat huzuridagi Yoshlar parlamenti a'zolari hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari qatnashdi. Majlisni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi Tanzila Narbayeva olib bordi.

Xo'sh, yalpi majlisda yana qanday masalalar ko'rildi-yu, ulardan ko'zlangan maqsad nimadan iborat? Korrupsiya illati haqida qanday mulohazalar bildirildi. Shu kabi savollar bilan qiziqib, Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Andijon axborot-kutubxona markazi direktori, xalq deputatlari Andijon viloyat Kengashi deputati Gulnora Alijonovna ISMOILOVAga yuzlandik.



Yalpi majlisda jamiyat hayotining barcha sohalari huquqiy asoslarini mustahkamlashga va mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar samaradorligini oshirishga, xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan 16 ta masala, shu jumladan 9 ta qonun ko'rib chiqildi. Jumladan:

Yalpi majlisning birinchi ish kunida senatorlar tomonidan "Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar to'g'risida"gi, "Davlat ijtimoiy sug'urtasi to'g'risida"gi, "Kreditorlarning garov bilan ta'minlangan talablarini qanoatlantirish tizimi takomillashtirilishi to'g'risida"gi, "Noshirlik faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga qo'shimchalar va o'zgartirish kiritish haqida"gi, "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga ta'lim xizmatlarini ko'rsatish sohasini takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga transport xizmati ko'rsatishni tashkil etish tizimini takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi hamda "Bozor islohotlari va O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonlari yanada jadallashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonunlar qizg'in muhokama qilindi va senatorlar tomonidan ma'qullandi.

2025-yil 5-sentyabr kuni yalpi majlis o'z ishini davom ettirdi.

Jinoyatchilikka qarshi kurashish, mamlakatda kriminogen vaziyat barqarorligini saqlash, tezkor-qidiruv, surishtiruv va dastlabki tergov faoliyatini yuritishda ham kamchiliklar mavjudligi qayd etildi.

Senatorlar prokuratura organlari tomonidan sog'liqni saqlash, yuqumli kasalliklarning oldini olish, reproduktiv salomatlikni, onalik va bolalikni muhofaza qilishga oid qonunchilik ijrosi ustidan ta'sirchan nazorat o'rnatish, yoshlar va xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilishga oid qonunchilik hujjatlari ijrosini ta'minlash borasida nazoratni yanada kuchaytirish bo'yicha tavsiyalarini berdi.

Shuningdek Yalpi majlisda senatorlar tomonidan Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan taqdim etilgan O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi milliy ma'ruza ko'rib chiqildi. Unga asosan:

2024-yilda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarni huquqiy ta'minlashga qaratilgan 8 ta normativ-huquqiy hujjat qabul qilingan.

Davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashishning zamonaviy mexanizmlari keng joriy etildi. Ularning faoliyatida ochiqlikni ta'minlash, jamoatchilik oldida hisobdorlikni oshirish bo'yicha zarur choralar ko'rilmoqda.

Shu bilan birga, "O'zbekiston – 2030" strategiyasida korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish tizimining samaradorligini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan maqsadli ko'rsatkichlar belgilab olingan.

Sohada davlat siyosati izchilligini ta'minlash maqsadida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2023-2024-yillarga mo'ljallangan davlat dasturi qabul qilinib, ochiq e'lon qilinishi lozim bo'lgan ma'lumotlar ro'yxati 35 tadan 40 tagacha kengaytirilgan.

Shu bilan birga, muhokamada senatorlar tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida ayrim kamchiliklar saqlanib qolayotganligi ham qayd etildi.

Korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun sudlangan shaxslarning aksariyati maktabgacha va maktab ta'limi, sog'liqni saqlash, tijorat banklari hamda bandlik tizimi xodimlariga to'g'ri keladi.

Adliya vazirligi tomonidan 2024-yilda 2 mingdan ortiq loyihalarning 222 tasida yoki 11 foizida 337 ta korrupsiyaviy omillar aniqlangan. Korrupsiyaviy omillarning aksariyati Iqtisodiyot va moliya, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi, Qishloq xo'jaligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirliklari tomonidan kiritilgan normativ-huquqiy hujjatlarda aniqlangan.

Korrupsiyaga qarshi ekspertizaga berilmagan loyihalarning ko'pchiligi Investitsiyalar, sanoat va savdo (6 ta), Energetika, Qishloq xo'jaligi hamda Tashqi ishlar (5 tadan) vazirliklari hissasiga to'g'ri keladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid qonunchilik hujjatlarining mohiyati va ahamiyatini aholi o'rtasida tushuntirishga qaratilgan targ'ibot tadbirlari yetarli darajada tashkil etilmagan.

Muhokama jarayonida Senat a'zolari tomonidan Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, qator vazirlik va idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatini yanada takomillashtirishga qaratilgan qator takliflar bildirildi. Xususan:

– korrupsiyaga oid jinoyatlarni tahlil qilgan holda jinoyatlar ko'rsatkichi oshgan davlat organlari va tashkilotlarida kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlarni belgilash;

– korrupsiya haqida xabar bergan shaxslarni rag'batlantirish tizimi bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlarini faollashtirish, davlat organlari va tashkilotlari, shuningdek mahalliy davlat hokimiyati organlarining ichki nazorat tuzilmalari xodimlariga qo'shimcha vazifalar yuklatilishining oldini olish;

– ichki nazorat tuzilmalari tomonidan nazorat tadbirlari muntazam ravishda o'tkazilishini ta'minlash, odob-axloq komissiyalarining faoliyatini kuchaytirish.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining o'ninchi yalpi majlisida senatorlar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining qarorlari ham tasdiqlandi.

Sir emaski, korrupsiya – taraqqiyot kushandasi. U, jamiyat tanasidagi saraton, deb ham ta'riflanadi. Shunday ekan, unga qarshi kurashish har bir rahbarning, har bir fuqaroning burchi bo'lishi kerak, nazarimda. O'ninchi yalpi majlisda ishtirok etgan har bir qatnashchining qalbidan ana shunday his o'tgani aniq. Hali bu illat tamom barham topganicha yo'q, shunday ekan, oldimizda dolzarb vazifalar bor. Yakdillik va hamjihatlik, ota-bobolarimiz, ko'pni ko'rgan momolarimiz azaldan amal qilib kelgan vijdon va halollik tamoyillariga suyansak, qonun ustuvor bo'lgan davlat va jamiyatda yashayotganimizni anglasak, albatta, qonunbuzilishga, poraxo'rlikka yo'l qo'yilmaydi. Jamiyatdagi illatlarning katta-kichigi bo'lmaydi, ularning barchasiga yalpi kurash masalasi bugun kun tartibida turibdi.

Ikromjon MANSUROV
suhbatlashdi.

ELNING KO'NGLI TO'Q BO'LSIN!

Oliy Majlis Senati a'zosi bo'lmish bir qadrdonim bilan Toshkent ko'chalarida yuzma-yuz suhbatdan keyingi xulosalarim
(Bugunning she'ri)

Kundan kunga gullar bizning jamiyat,
Bu – quvonchdir, bu – nomusu hamiyat,
Sokin dilda qo'zg'aladi bir niyat:
Imon, insof aslo so'nmas cho'g' bo'lsin,
Korrupsiya yo'q bo'lsin,
Elning ko'ngli to'q bo'lsin!

To'g'ri, uy bor, ro'zg'or borki, kami bor,
Mutasaddi insonlarning g'ami bor,
Zulmat ham bor, yorug'lik bor, shami bor,
Sham shu'lasi – ya'ni nur bir tug' bo'lsin,
Korrupsiya yo'q bo'lsin,
Elning ko'ngli to'q bo'lsin!

Qaydan keldi «oldi-berdi», bu illat,
Tanlamaydi, chamasi u irq, millat,
Kurashaylik, illatga biz hamjihat,
Diyonat har umr uchun ko'rk bo'lsin,
Korrupsiya yo'q bo'lsin,
Elning ko'ngli to'q bo'lsin!

Eshitganda poraning shum nomini,
Bilamiz-ku, qing'ir ish davomini,
Qonun oxir aytar haq kalomini,
Qaddimiz tik, yuzimiz yorug' bo'lsin,
Korrupsiya yo'q bo'lsin,
Elning ko'ngli to'q bo'lsin!

Ko'p vektorli siyosatda maqsad shu –
Urug'-aymoq, pora hayotda og'u,
Oqillarga vaqt ko'rsatmoqda-ku,
Oqillarning tayanchi huquq bo'lsin,
Korrupsiya yo'q bo'lsin,
Elning ko'ngli to'q bo'lsin!

Bir so'm bermang, bir so'm olmang – shior shu,
Halollik – baxt, asl avju baror shu,
Oliy Majlis mashvaratda qaror shu:
Tiluqmasga pushaymon bir o'q bo'lsin,
Korrupsiya yo'q bo'lsin,
Elning ko'ngli to'q bo'lsin!

Halol o'tdi diyonatli bobolar,
Adolatxon ena yanglig' momolar,
Qo'llarida or-nomusi – asolar,
Vorislar ajdodlardek buyuk bo'lsin,
Korrupsiya yo'q bo'lsin,
Elning ko'ngli to'q bo'lsin!

Qonuniy davlatdir hur O'zbekiston,
Yangi qadam, yangi tarix, yangi shon,
O'zligini qilmoqdadir namoyon,
Har kunmas, har on marra, yutuq bo'lsin,
Korrupsiya yo'q bo'lsin,
Elning ko'ngli to'q bo'lsin!

Suvlar oqar, suvlar oqar yangidan,
Dil hayqirar, saodat jarangidan,
Kuy bastalab, poklikning ohangidan,
Pokdomonlar sohibi dovruq bo'lsin,
Korrupsiya yo'q bo'lsin,
Elning ko'ngli to'q bo'lsin!

Muharririm, menga quloq osgaysiz,
Bu baytimni tez orada bosgaysiz,
Ikromjonning dilrozini yozgaysiz,
Bir dilrozkim, dilnavoz, suyuk bo'lsin:
Korrupsiya yo'q bo'lsin,
Elning ko'ngli to'q bo'lsin!

Elning ko'ngli to'q bo'lsin,
Korrupsiya yo'q yo'q bo'lsin,
Korrupsiya yo'q bo'lsin,
Elning ko'ngli to'q bo'lsin!

Ikromjon ASLIY-ANDIJONIY,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi.



HOKIMLIKLARDAN KOMPENSATSIYA UNDIRISH ISHLARI AMALGA OSHIRILMOQDA

Majburiy ijro byurosi Andijon viloyati boshqarmasi va uning hududiy bo‘limlari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning buzilgan turar joylari hamda bino-inshootlari uchun hokimliklardan kompensatsiya undirish to‘g‘risidagi sud qarorlari ijrosi yuzasidan muayyan ishlar olib borilmoqda.

Xususan, hozirda ish yurituvda mazkur toifadagi 162 ta 58,7 mlrd. so‘mlik ijro hujjatlari mavjud bo‘lib, ijro harakatlari davomida 71 ta ijro hujjatlarining ijrosi amalda ta’minlanib, 12 mlrd. so‘m to‘lovlar undiruvchilar foydasiga undirilgan.

Misol uchun, fuqarolik ishlari bo‘yicha Andijon tumanlararo sudining qarzdor Andijon shahar hokimligi hisobidan undiruvchi A.X. foydasiga jami 1,1 mlrd. so‘m kompensatsiya to‘lovi to‘liq undirilib, ijro hujjati amalda tamomlangan.

Bu boradagi ijro harakatlari davom ettirilmoqda.

M.ABDURAXMANOV,
O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig‘i v.b.

MIKROKREDIT TASHKILOTIDAN OLINGAN QARZ QAYTARILMAGANI SABAB “CAPTIVA” XATLANDI



Hozirgi kunda kredit mablag‘larini nafaqat banklar, balki mikromoliya tashkilotlari orqali ham olish mumkin. Kredit olayotgan shaxs o‘ziga qulay bo‘lgan shartlarga rozilik bildirgan holda shartnoma majburiyatlarini zimmasiga oladi.

Kredit shartnomasiga asosan qarzdorlik o‘z muddatida to‘lanmasa shartnoma muddatidan oldin bekor qilinib, undiruv garov mulkiga qaratilishi mumkin.

Majburiy ijro byurosi Ulug‘nor tuman bo‘limi ish yurituviga ham aynan shu mazmundagi sudning ijro hujjati kelib tushgan bo‘lib, unda “FORTUNA BIZNES” mikrokredit tashkiloti foydasiga qarzdor F.A.dan jami 110 mln. so‘m undirish hamda undiruv fuqaro B.S.ga tegishli “CAPTIVA” rusumli avtotransport vositasiga qaratilishi ko‘rsatilgan.

Qarzdorlik qoplanmagani sabab, bo‘lim davlat ijrochisi tomonidan ijro harakatlari olib borilib, “CAPTIVA” xatlab qo‘yildi.

Kelgusida qarzdorlikning qoplanmasligi avtomashinaning sotuvga chiqarilishiga sabab bo‘ladi.

M.MIRHAMIDOV,
O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari.

SIRDARYOLIK QIDIRUVDAGI SHAXS ANDIJONDA TOPILDI

Andijonda farzandining moddiy ta’minotidan bo‘yin tovlab yurgan qarzdor ota qarindoshining uyidan topildi.

Ma’lum qilinishicha, asli sirdaryolik fuqaro K.I. turmush o‘rtog‘i bilan ajrashgan. Sudning hal qiluv qaroriga ko‘ra, undiruvchi G.E. foydasiga har oyda aliment to‘lashi belgilangan.

Biroq, qarzdor K.I. aliment pullarini o‘z vaqtida to‘lamasdan, yashash manzilini o‘zgartirib yurgan. Qarzdorlik esa 100 million so‘mdan ortib ketgan. Shunga ko‘ra, unga nisbatan 2023-yil 17-aprelda Byuroning Oqoltin tuman bo‘limi tomonidan qidiruv e’lon qilingan.

Hamkorlikdagi tadbirda Byuroning Andijon viloyati boshqarmasi qidiruv shu’basi xodimlari tomonidan, qarzdor K.I. Baliqchi tumanidagi qarindoshining uyida yashab kelayotganligi aniqlanib, topildi. Hozirda qarzdorga nisbatan javobgarlik masalasini hal etish uchun ish hujjatlari sudga tayyorlanmoqda.



F.RAHMATULLAYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi boshqarma katta prokurori.

KREDIT SABAB UY AUKSIONGA CHIQARILDI

Qarzdor shaxsga kredit qarzdorligini to‘lab qo‘yishi zarurligi haqida Byuroning Andijon viloyati boshqarmasi xodimlari tomonidan bir necha marotaba ogohlantirish berilgan edi. Biroq, qarzdor o‘z zimmasiga olingan majburiyatlarni bajarmadi va belgilangan muddatlarda to‘lovlarni amalga oshirmadi.

Fuqarolik ishlari bo‘yicha Izboskan tumanlararo sudining 2025-yil 21-yanvarda chiqarilgan ijro hujjatiga muvofiq, YATT M.A.dan undiruvchi “O‘zsanoatqurilishbank” ATB foydasiga jami 148,4 million so‘m kredit qarzdorligini undirish belgilandi. Shuningdek, qarzdor tomonidan majburiyat bajarilmagan taqdirda undiruv uning turar-joyiga qaratilishi qayd etildi.

Ijro hujjati talablari ijrosi ta’minlanishi uchun boshqarma xodimlari qarzdorga yana bir bor rasmiy ravishda ogohlantirish berdi. Ammo u baribir qarzini to‘lashdan bo‘yin tovladi.

Shu sababli, qonunchilik talablariga muvofiq, javobgarga tegishli bo‘lgan Baliqchi tumani Ko‘l mahallasidagi turar-joy binosi xatlandi.

Hozirda mazkur xonadon 175 million so‘m boshlang‘ich qiymatda elektron onlayn-auksion savdosiga qo‘yildi. Savdolarda har bir fuqaro belgilangan tartibda ishtirok etishi mumkin.

Fuqarolar kredit majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarishi, ortiqcha yo‘qotishlar va uy-joy kabi muhim mulklarini auksionga chiqarilishidan saqlaydi.



I.SAIDKULOV,
O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi boshqarma katta prokurori.

“OLDI-BERDI”DAGI 186 MILLION SO‘M HAQDORLIK UNDIRIB BERILDI

Keyingi yillarda jismoniy hamda yuridik shaxslar o‘rtasida qarz munosabatlari bilan bog‘liq huquqiy munosabatlarning tobora ortib borayotganligi, shu o‘rinda, ushbu munosabatlar natijasida turli nizolarning kelib chiqayotganligining guvohi bo‘lmoqdamiz.

Bir taraf qarz olib, zimmasiga olgan majburiyatini bajarmasligi oqibatida ikkinchi taraf muammosini sud orqali hal qilish zarurati paydo bo‘lmoqda. Shu sababdan, Byuro organlariga qarz va qarzdorlikni undirish haqidagi ijro hujjatlarining kelib tushish soni ham ortib bormoqda.

Jumladan, Andijon viloyat sudi fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlov hay’atining ijro varaqasiga asosan qarzdor M.A.dan undiruvchi A.A. foydasiga jami 186 441 000 so‘m undirilishi ko‘rsatilgan.

Majburiy ijro byurosi Asaka tuman bo‘limi xodimlari tomonidan ijro ishi yuritish qo‘zg‘atilib, qarzdor ogohlantirilgan. Ijro harakatlari olib borilib, huquqiy tushuntirishlar berilgan. Natijada, qarzdor M.A.dan undiruvchi A.A.ga jami 186 441 000 so‘m pullar undirib berilishi ta’minlandi.

B.KARIMOV,
O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi boshqarma prokurori.



XORIJGA KETAYOTGAN OTA 84 MILLION SO‘M ALIMENT PULINI OLDINDAN TO‘LADI

Buloqboshi tumanida yashovchi fuqaro U.A. bir nafar farzandi uchun aliment to‘lab borishi sud tomonidan belgilab qo‘yilgan. Byuroning Buloqboshi tuman bo‘limi tomonidan ijroni ta’minlash maqsadida qarzdor U.A.ning O‘zbekiston hududidan chetga chiqish huquqlari tegishli qonun talablariga ko‘ra cheklab qo‘yilgan.

Shu tufayli, xorijga chiqish istagida yurgan qarzdor ota farzandi ta’minoti uchun aliment pullarini oldindan to‘lab berishini bildirgan.

Ijro harakatlari davomida, taraflar o‘rtasida kelishuvga erishilib, qarzdor U.A. undiruvchi D.D. foydasiga 84 million so‘m oldindan to‘lab berdi hamda qarzdorga nisbatan qo‘llanilgan cheklov choralari bekor qilindi.



J. NIYOZOV,
O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi boshqarma prokurori.

МЕРОСХЎРЛАР ДИҚҚАТИГА!

Андижон шаҳрида яшаб, 2010 йил 13 декабрь куни вафот этган марҳум **НАДИРОВ УСМАНДЖОН**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, Бобур шохкўчаси, 30/А-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус И.А.Узакбаев нотариал идорасига,

Андижон шаҳрида яшаб, 2013 йил 19 март куни вафот этган марҳум **УСМАНОВ ХАЛДАРБОЙ**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, А.Темур шохкўчаси, 35/А-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Д.А.Абдусаломова нотариал идорасига,

Хонобод шаҳрида яшаб, 2025 йил 23 июль куни вафот этган марҳум **ISMATULLAYEVA MASHXURAXON XIDYATULLAYEVNA**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Хонобод шаҳри, Обод кўчаси, 134-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Н.Зулунов нотариал идорасига,

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2025 йил 4 март куни вафот этган марҳум **TEMIROV ERGASHALI KUCHKAROVICH,**

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2001 йил 20 август куни вафот этган марҳум **НАЗАРОВ СОЛИ ХХХ,**

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2022 йил 16 май куни вафот этган марҳум **MIRZARAXIMOV ABDUVAXAB MAMADALIYEVICH**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Жалақудуқ тумани, Ўзбекистон кўчаси, 57-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Ш.Ю.Рахимов нотариал идорасига,

Избоскан тумани, А.Темур МФЙ, Ғалаба кўчасидаги уйда яшаб, 2017 йил 6 ноябрь куни вафот этган марҳум **ШИРЕЯЗДИНОВ ГИНДУЛЛА,**

Избоскан тумани, Қашқарлик МФЙ, Санъат кўчаси, 35-уйда яшаб, 2021 йил 26 июль куни вафот этган марҳум **КОДИРОВ МИРАББОС МИРЗААХМАД УГЛИ,**

Избоскан тумани, Зарбдор МФЙ, Бехизор кўчасидаги уйда яшаб, 2012 йил 12 сентябрь куни вафот этган марҳум **ТАЖИБАЕВ АБДУРАХМОН ВАХОБОВИЧ**,

Избоскан тумани, Ботиробод МФЙ, Ойбек кўчасидаги уйда яшаб, 2024 йил 6 сентябрь куни вафот этган марҳум **КАМОЛДИНОВ ШАРОБИДИН ЖАМОЛДИНОВИЧ,**

Избоскан тумани, Қўшкўприк МФЙ, Намуна кўчасидаги уйда яшаб, 2025 йил 26 февраль куни вафот этган марҳум **КУЧКАРОВ АВАЗБЕК ТОЛИБОВИЧ,**

Избоскан тумани, Иттифоқ МФЙ, Чемпион кўчасидаги уйда яшаб, 2017 йил 9 август куни вафот этган марҳум **ТУРГУНОВА АДИНАХОН ТУХТАСИНОВНА**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Избоскан тумани, Нақшбанд кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус С.К.Ботиров нотариал идорасига,

Марҳамат тумани, Ўзбекистон МФЙ, Бобур шоҳкўчасидаги уйда яшаб,1993 йил 16 июнь куни вафот этган марҳум **ШАРОФУДИНОВ БУРХОН,**

Марҳамат тумани, Ғафур Ғулом МФЙ, Юксалиш кўчасидаги уйда яшаб, 2015 йил 11 январь куни вафот этган марҳум **ҚЎЧҚОРОВ ИСМОИЛ,**

Марҳамат тумани, Ғафур Ғулом МФЙ, Юксалиш кўчасидаги уйда яшаб, 2003 йил 10 март куни вафот этган марҳум **ЗОКИРОВ АБДУКОДИР,**

Марҳамат тумани, Дукчи Эшон МФЙ, Жомий кўчасидаги уйда яшаб, 2025 йил 3 март куни вафот этган марҳум **АВВАЛОВ ҒАНИЖОН РУЗИЕВИЧ**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Марҳамат тумани, Бобур шохкўчаси, 38-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Т.Усмонов нотариал идорасига,

Марҳамат тумани, Кўтарма МФЙ, Баҳор кўчасидаги уйда яшаб, 2022 йил 10 август куни вафот этган марҳум **ХУДОЙБЕРГАНОВ ЭРГАШ**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Марҳамат тумани, Мустақиллик кўчаси, 114-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Б.И.Алиев нотариал идорасига,

Пахтаобод туманидаги уйда яшаб, 2020 йил 22 сентябрь куни вафот этган марҳум **АБДУРАХМОНОВ ЭРКИНЖОН АБДУҚАХХОРОВИЧ,**

Пахтаобод туманидаги уйда яшаб, 1997 йил 11 март куни вафот этган марҳум **ШОДМОНОВ УЛМАСБОЙ**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Пахтаобод тумани, Муаззинбой МФЙ, Олтин йўл кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Х.А.Рахмонов нотариал идорасига,

Хўжаобод тумани, Тош ота МФЙдаги уйда яшаб, 2024 йил 12 декабрь куни вафот этган марҳум **ПАЙЗИЛЛАЕВА ДИЛОРОМХОН ХХХ**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Хўжаобод тумани, Бешкарам кўчаси, 83-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Л.К.Мирзаолимов нотариал идорасига,

Шаҳрихон тумани, Шаҳрихонлик МФЙда яшаб, 2020 йил 3 сентябрда вафот этган марҳум **АБДУРОЗИҚ ИЗИТДИНОВИЧ РАХМОНОВ**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, тегишли ҳужжатлари билан Шаҳрихон тумани, Р.Ёдгоров кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Ахмаджонов нотариал идорасига мурожаат қилишлари сўралади.

KAROMAT



(Hikoya)

Umar SAYFIDDIN

Yong‘in yarim soatdan beri davom etardi. Mahalla aholisi yong‘inning ikkita uydan nariga o‘tmay so‘nishiga ishonishardi. Chunki o‘rtada bir ulug‘ zotning maqbarasi bor edi. Bu yerning yonishi aslo mumkin emasdi! Shiddatli janub shamoli esar, olov va uchqunlarini sochgan taxta parchalari maqbaraning ustiga, pastdagi uylarning tomlariga uchib tushardi. Yong‘in o‘chiruvchilar bor g‘ayratlarini sarf qilardi. Politsiyachilar atrofni qurshab olishgan, buyumlarning o‘g‘irlanishini oldini olishardi. Ahmat tirriq atrofga nazar tashladi. Bu kishi mahallaning tajribali bezorisi edi. Uning fikricha yong‘in — mollarni osongina qo‘lga kiritish degani edi. Ammo mahalla xalqi faqir edi. Shu onda yongan kulbalar ichida ko‘rpa-to‘shakdan boshqa narsa yo‘qligini u yaxshi bilardi. Holbuki, yong‘inda uning odati “yuki yengil, bahosi qimmat” ashyolarni topish edi. — Alloh balosini bersin! Foydasiz yong‘in!, — deb boshini chayqadi. Aholi maqbaraning oldiga to‘plangan edi. Bu yerga kelguncha olov so‘nadi, deyishardi. Ahmat tirriq yashil rangdagi maqbaraning derazasidan mo‘raladi. Xira yongan mumning yengilgina yoritayotgan mozor sag‘anasiga qaradi. Bosh tarafida ikkita katta shamdon turardi. Sag‘ananing ikki tarafiga ikkita joynamoz solingan edi. Ochiq lavhlarda buyuk Quroni Karimlar “yonboshlab yotardi”. Ozg‘in Ahmat arzon molni ko‘rganda porlaydigan yahudiy ko‘zi bilan bularga qaradi. O‘zicha ashyolarning eng arzon narxini hisobladi. Ichidan: — Shamdonlar o‘n liradan yigirma…. Joynamozlar o‘n besh liradan o‘ttiz… Kitoblar aniq qo‘l yozma bo‘lsa kerak. Yigirma lira ularga …Jami yetmish”…, dedi. Yashil rangga bo‘yalgan eshikning yoniga bordi. Ozg‘in suyakli yelkasi bilan eshikning qanchalik mustahkamligini tekshirib ko‘rdi. So‘ngra qulfiga qaradi. Sekin-sekin eshikni itara boshladi. Xalq yong‘in bilan ovora edi. Ahmat tirriq juda quvvatli edi. Bu mahalladagi urushqoq odamlargagina xos bo‘lgan, kuchli mushagi bo‘lmasa ham, sport bilan shug‘ullanmasa ham o‘zidan o‘zi yuzaga keladigan telba kuch edi. U eshikni butun kuchi bilan itargani uchun eshik qirsillab, nihoyat “qars” etib ochildi. Tirriqning ichkariga kirgandan keyingi ilk ishi xira mumni puflab ochirish bo‘ldi. Faqat oladigan narsalari har qancha qiymatli bo‘lsa ham yuki unchalik yengil emas edi. O‘g‘irlik rejasi uning zehnida tartiblana boshladi. Bezorining rejasi tayyor bo‘lguncha, “natija”ni kutmasdan, harakatni boshladi. Shamdonlarning mumlarini chiqarib yerga tashladi. Lavhlardagi kitoblarni olib belidan yechgan Trablus belbog‘iga o‘radi. So‘ngra biroz tin olib, burnini qashidi. Asta-sekin joynamozlarni yig‘ishtirib, bularni otning ustiga jul yopganday qilib sag‘ananing ustini o‘radi. Endi eshikdan chiqishi lozim edi. Ammo tashqari odam bilan to‘la edi. Sag‘anaga suyandi. Biroz o‘yladi. Salla ham tashlab ketiladigan narsa emasdi, ustida kumush ip bilan tikilgan naqsh bor edi. Birdan sag‘ana siljiy boshladi. Ahmat tirriq yiqilmaslik uchun o‘zini zo‘rg‘a ushlab qoldi. “Ajabo, avliyo tirilyaptimikan?” – deb o‘zicha o‘yladi. Joyida turib qoldi. U yerga qaradi va kulimsiradi. “Uh seni, yerga mixlanmagan ekan-ku”, - dedi. Egildi, ostiga qarash uchun sag‘ana qopqasini ko‘tardi. Qopqa ancha yengil edi. Ingichka yog‘ochdan yasalib, ustiga yashil mato qoplangan edi. Zehnidagi “chiqish rejasi” tamomlandi. Kitoblar bilan shamdonlarni quchoqlab sag‘ana qopqasining ostiga kirdi. Sekin-asta yura boshladi. To‘xtadi. Qopqa ostidan qo‘lini chiqarib asta-sekin eshikni ochdi. Chap taraf ko‘chaga chiqqani uchun ushlanib qolish ehtimoli bor edi. O‘ng tarafdagi ko‘chada hech kim yo‘q, tanho edi. Ko‘chada vayronalar ko‘p edi. Ammo yong‘in ham shu tarafda edi. Barcha o‘sha tarafga yig‘ilgandi. Ahmat tirriq qopqaning ostida ko‘p o‘ylab o‘tirmadi. Patir-putur qilib eshikdan chiqdi. Shovqinni eshitib qayrilib qaragan xalq hayron edi. Hamma joyida dong qotib qolgandi. Ana.. Avliyo o‘rnidan turib yura boshlagan edi. Nasoslar to‘xtadi. Shiddatli shamol ham birdaniga tindi. O‘t o‘chiruvchilar qo‘rquvlaridan qo‘llaridagi bolta, changak, shlanglarni tashlab yubordilar. Sag‘ana qopqasi yong‘inga qarab yura boshladi. Ikki yonga ochilib yo‘l bergan aholi qo‘rquvdan titrardi. Sag‘ana qo‘rquv to‘la, ma’naviy haybat bilan silkina silkina-silkina oralaridan o‘tib, qorong‘ulikda ko‘zdan yo‘qoldi. Maqbaradan oldingi ikki uy ham olovdan omon qoldi. Yonmasdan avliyosiz qolgan maqbara yana mahallaning aziz maskani bo‘lib qolaverdi. Faqat duo qilganlar yuzlarini oldingiday bo‘shab qolgan binoga emas, qiblaga qarab “Ko‘zimning nuri, yong‘in kechasi bu tarafga qarab ketdi” deyishardi.

Turk tilidan
Zamira HAMIDOVA
tarjimasi.

QISHLOQI CHOLNING AMRIQOLIK SAYYOHGA NASIHATI

(Hikoya)

Uilyam SAROYAN

Malik tog‘am Fresnodan Nyu-Yorkka jo‘nayotganida uni kuzatish uchun qo‘nalg‘aga kelgan amakisi — Garri bobo nasihat qila boshladi:

— Quloq sol, Malik,— dedi qariya,— poyezdga chiqqach, avvalo, yaxshiroq joy tanlab o‘tir, atrofga alanglama.

— Xo‘p,— dedi tog‘am.

— Poyezd qo‘zg‘algach, yo‘lakda formali ikki kishi paydo bo‘ladi va chipta so‘raydi. Ularga parvo qilma. Ular — kissavurlar.

— Qanday taniyman?—deb so‘radi tog‘am.

— Taniysan,— dedi qariya.— Nima, yosh bolamiding.

— Xo‘p, amaki.

— Yigirma millar yo‘l yurgach, yosh yigit kelib, senga sigaret taklif qiladi. Unga, chekmayman, degin. Sigaretga nasha solingan bo‘ladi.

— Xo‘p, amaki. Restoranli vagonga borayotganingda juda xushro‘y yosh juvon oldingdan chiqadi va seni quchoqlaydi. U sendan chin dildan uzr so‘radi. Tabiiyki, qalbingda u bilan gaplashish istagi jo‘sh uradi. Lekin nafsingni tiy, restoranda yolg‘iz ovqatlan. Ayol buzuqi bo‘lishi mumkin.

— Kim? — dedi tushunmay tog‘am.

— Kim bo‘lardi, suyuqoyoq!..— deya qichqirdi qariya.— Bor-da, ovqatlan. Eng yaxshi ovqatdan talab qil. Agar restoranda odam ko‘p bo‘lsa, sening stolingga yosh juvon kelib o‘tirsa, uning ko‘zlariga qarama. U gap qo‘shsa o‘zingni karlikka sol.

— Xo‘p, amaki.

— Karlikka sol! Tanglikdan chiqishning yagona yo‘li shu.

— Qanday tanglikdan?— deb so‘radi tog‘am.

— Tanglik — bu dahshatli holat, — dedi qariya. — Boshimdan o‘tgan. Boshidan o‘tganning qoshidan o‘t, degan-ku, mashoyixlar.

— Xo‘p,— dedi tog‘am.

— Barakallo, shunday qil. Xo‘-o‘sh, — dedi qariya, — restorandan qaytayotganingda sen qimorbozlarga duch kelasan — qarta o‘yinining ustidan chiqasan. Uchta o‘rta yashar qimorboz davra qurib o‘tirgan bo‘ladi. Ular seni imlab, o‘yinga taklif etadi. Ularga: «Qartani bilmayman», deb ayt.

— Xo‘p.

— Yana bir gap. Kechasi yotganingda hamyoningdan pulingni olda, tuflingga sol. Tuflingni yostig‘ingning tagiga qo‘y. Tun bo‘yi yostiqdan boshingni ko‘tarma, uxlama.

— Mayli, amaki, — dedi tog‘am.

— Xayr bo‘lmasa, — dedi qariya, — yaxshi bor! Qariya ketdi. Malik tog‘am poyezdda Nyu-Yorkka jo‘nadi. Formali ikki kishi kissavur emas ekan. Nasha solingan sigaret chekishni hech kim taklif qilmadi, chiroyli juvon uning stolida o‘tirmadi, qartabozlik ham bo‘lmadi. Tog‘am pulini tuflisiga soldi, tuflisini yostig‘ining tagiga



yashirdi, boshini yostiqqa qo‘ydi va birinchi kecha mijja qoqmadi, lekin ikkinchi kecha amakisining chizgan chizig‘idan chiqdi… U qandaydir yosh yigitga sigaret taklif qildi. Restoranda yosh xonim bilan bir stolda ovqatlandi. U qartabozlik tashkil etdi. Poyezd Nyu-Yorkka yaqinlashganida tog‘am, kashanda yigit va ikki yosh xonim amriqocha qo‘shiqlarni birgalikda kuy-lashardi… Sayohat juda maroqli o‘tdi. Malik tog‘am Nyu-Yorkdan qaytib kelgach, uning amakisi — Garri bobo yana tashrif buyurdi.

— Ziyoratingiz qabul bo‘lsin!— dedi u xursand bo‘lib. — Qalay, jiyan, bizning nasihatlar safarda asqotdimi?

— Bo‘lmasam-chi,— dedi tog‘am.

— Nasihatimning senga foydasi tegganidan xursandman,— dedi chol og‘zi qulog‘ida.

Ingliz tilidan
O‘roq RAVSHANOV
tarjimasi.

ADOLAT MEZONI

MUASSIS: «Nurafshon gulshani» mas’uliyati cheklangan jamiyati

Muharrir: M.ORTIQOVA

Tahririyat manzili: Andijon shahri, Navoiy shohko‘chasi, 71-uy. Telegram: (+998 99) 995-19-66 E-mail: and_mezoni@inbox.uz

Gazeta Andijon viloyati matbuot va axborot boshqarmasida 2010-yil 16-martda 04-040 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr ko‘rsatkichi - 2536

Gazeta tahririyat kompyuter bo‘limida terildi va sahifalandi. «ZAKOVAT» nashriyot uyi MCHJda original maket asosida chop etildi. Chop etishga topshirish vaqti 05.09.2025-yil, soat 11.00. Chop etishga topshirildi 05.09.2025-yil, soat 14.00. Korxona manzili: Kosonsoy shahri, Chorbog‘ ko‘chasi, 17-uy. Hajmi 2 bosma taboq. Qog‘oz bichimi A-3. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma № 11966. 188 nusxada bosildi.

Navbatchi: M.Mamatqulov. Dizayner: Sirojiddin Mamadali o‘g‘li